

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida PF-16-sonli Farmoni ijrosini ta’minlashga qaratilgan “O‘zagroinspeksiya”da belgilangan ustuvor vazifalar bo‘yicha chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan

MA’LUMOT

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
34-maqсад: Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish.					
1.	64.	Sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish maqsadida ommaviy sport musobaqalarida aholi qamrovini kengaytirish.	1. Inspeksiya xodimlarining jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun targ‘ibot ishlarini olib borish 2. Inspeksiya xodimlarining ishdan bo‘sh vaqtlarida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratish. 3. “O‘zagroinspeksiya”da sportning suzish, stol tennisi, futbol va shaxmat musobaqalarini yil davomida tuman, viloyat va respublika bosqichida sport musobaqalarini o‘tkazishni tashkillashtirish.	2025-yil davomi 2025-yil mart 2025-yil oktabr	Bajarildi. Inspeksiyaning 2025-yil 13-fevraldagi “O‘zagroinspeksiya”da jamoaviy sport turlari bilan shug‘ullanishni tashkil etish haqida”gi UM-10-25-sonli buyrug‘i qabul qilindi. Buyruqqa asosan Inspeksiya xodimlarini ishdan bo‘sh vaqtlarida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun Inspeksiya binosida sport xonasi yani (tennis, shaxmat va shashka) mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 34 yilligi bayrami munosabati bilan, “O‘zagroinspeksiya” xodimlari o‘rtasida joriy yilning 20-26-avgust kunlari sportning stol tennisi turi bo‘yicha O‘zagroinspeksiya boshlig‘i kubogi-2025 musobaqasi o‘tkazildi.
38-maqсад: Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash.					
2.	72.	Aholining zamonaviy bilim, ko‘nikma va	1. Loyihani amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.	2025-yil mart	Bajarildi. “O‘zagroinspeksiya” xodimlarini zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarini

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
		malakalarini oshirishga qaratilgan “Ma’rifat ulashib” loyihasini amalga oshirish.	2. Loyiha doirasida Inspeksiyaning barcha hududiy boshqarmalarida o‘quvlar va treninglar tashkil etish.	2025-yil davomi	oshirishga qaratilgan “Ma’rifat ulashib” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha joriy yilning 24 aprelda tasdiqlangan chora-tadbir rejasiga asosan ishlar tashkil etilmoqda. “O‘zagroinspeksiya” markaziy apparatida “Ma’rifatli yoshlar – millat faxri” iqtidorli va iste’dodli yoshlar loyihasi doirasida joriy yilning 12-iyun kuni “Kitobxonlik kuni” o‘tkazildi va ushbu tadbirda faol ishtirok etgan xodimlarga kitoblar sovg‘a qilindi.
54-maqсад: Qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish.					
3.	46.	Bir gektardan olinadigan o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish.	1. 2025-yil hosili uchun 189,7 ming gektar maydonga mahalliy sharoitda tayyorlangan xorijiy g‘o‘za navlari urug‘liklarini qayta ishlash (tozalash, saralash, tuksizlantirish, dorilash va qadoqlash) ishlarini texnik jixatdan tartibga solish to‘g‘risidagi normativ huquqiy xujjatlar talablariga muvofiq bajarilishini nazorat qilish. 2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi va viloyatlar hokimliklarining takliflariga ko‘ra joriy yilda 150 ming gektar maydonga ekish uchun xorijdan olib kelinadigan urug‘liklarni ekinboplik sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash va	2025-yil mart 2025-yil aprel	Bajarildi. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvaridagi “Paxtachilikda yuqori samarali intensiv agrotexnologiyalarni qo‘llash va xorijiy g‘o‘za navlari maydonlarini kengaytirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 43-sonli qarori ijrosi yuzasidan xorijiy davlatlardan joriy yilda korxonalar tomonidan 13,1 ming tonna urug‘lik chigitlar olib kelindi hamda Markaziy laboratoriyada tahlildan o‘tkazilib, shundan 9,5 ming tonnasi yaroqli deb topildi va ekish uchun xo‘jaliklarga tarqatilishi nazorat qilindi. Shuningdek, 835 ming gektar maydonlarda mahalliy va xorijiy paxta navlarini yetishtirish maqsadida, sifatli urug‘lik chigitlar bilan ta’minlash bo‘yicha,

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
			ekish uchun tarqatilishini nazoratga olish. 3. Respublika bo'yicha 835 ming gektar maydonga ekish uchun urug'lik chigit tarqatilishini nazoratga qilib borish. 4. Qishloq xo'jaligi ekinlarini hududlarning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib joylashtirilishi ustidan nazorat qilib borish. 5. Qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish va ekish bilan bog'liq hamda o'sish (vegetatsiya) davrida bajariladigan agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan nazorat tadbirlari olib borish.	2025-yil mavsum davomida	33,6 ming tonna mahalliy urug'lik chigitlar korxonalar tomonidan tayyorlandi hamda laboratoriya tahlillari o'tkazilib, 33 ming tonnasi yaroqli deb topilib, xo'jaliklarga tarqatilishi nazorat qilib borildi. Joriy yilda g'o'za parvarishi bo'yicha mavsum boshidan buyon 27 ming ta nazorat tadbirlari o'tkazilib, nazorat tadbirlari davomida 28 689 ta fermer xo'jaliklarining 233 ming gektar g'o'za maydonlarida kamchiliklar aniqlandi. Aniqlangan kamchiliklarni qisqa muddatlarda bartaraf qilish yuzasidan, mahalliy hokimliklar hamda soha mas'ullariga 1 045 ta taqdimnomalar kiritilib, fermer xo'jaliklariga 25 642 ta ogohlantirish va 14 637 ta yozma ko'rsatmalar berilib, 66 ta ma'muriy jarimalar qo'llanilgan. Yuqoridagi topshiriqlar ijrosi yuzasidan nazorat tadbirlari davom ettirilib, amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan qo'shimcha ma'lumot kiritib borilishi ta'minlanadi.
4.	50.	Shaffof mexanizmlarni joriy etish orqali raqamli texnologiyalar yordamida qishloq	1. "Traktorchi mashinistlarni tayyorlash va qayta tayyorlash yo'nalishidagi ta'lim tashkilotlarini hisobga olish" xizmatidan	2025-yil davomida	Bajarildi. "Traktorchi mashinistlarni tayyorlash va qayta tayyorlash yo'nalishidagi ta'lim tashkilotlarini hisobga olish" xizmatidan hamda "Jismoniy shaxslarning 100 ot

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
		xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga qulaylik yaratish.	foydalanishni Yagona portal orqali joriy etish. 2. "Jismoniy shaxslarning 100 ot kuchigacha quvvatga ega bo'lgan texnikalarini texnik ko'rikdan o'tkazish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini hisobga olish" xizmatidan foydalanishni Yagona portal orqali joriy etish		kuchigacha quvvatga ega bo'lgan texnikalarini texnik ko'rikdan o'tkazish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini hisobga olish" xizmatlaridan foydalanishni Yagona portal orqali joriy etish bo'yicha ishlar tashkil etildi. Bugungi kunda tizimlarni integratsiya qilish bo'yicha texnik shartlar ishlab chiqilmoqda.
5.	52.	Mahalliy sabzavot, poliz va kartoshka urug'lik ta'minotini 50 foizga yetkazish.	1. Xususiylashtirilgan va "Urug'chilikni rivojlantirish markazi"ga qarashli Elita urug'chilik xo'jaliklarida sabzavot, poliz, va kartoshka ekinlarining mahalliy selleksiya navlariga mansub urug'liklarini yetishtirish, jamg'arish ishlarini tizimli nazoratga olish. 2. Mahalliy selleksion navli urug'liklarini ekinboplik sifat ko'rsatkichlari bo'yicha muvofiqlik sertifikatini asosida realizatsiya qilinshini nazorat qilish.	2025-yil noyabr	Bajarildi. Respublikada mahalliy sabzavot, poliz va kartoshka urug'lik ta'minotini 50 foizga yetkazish bo'yicha chora tadbirlar belgilab olindi. 2025-yilning o'tgan davri mobaynida 5,7 ming tonna mahalliy selleksion navli kartoshka urug'liklarini ekinboplik sifat ko'rsatkichlari bo'yicha xulosalar berilib, qishloq xo'jaligi korxonalariga yetkazib berilishi nazorat qilindi.
55-maqсад: Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish.					
6.	58.	Soha va tarmoqlar bo'yicha amaldagi 3 074 ta standartning Jahon savdo tashkiloti	1. Inspeksiya faoliyatiga taalluqli amaldagi foydalanib kelinayotgan davlat standartlari ro'yxatini shakllantirish.	2025-yil may	Bajarildi. Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi, yuqori sifatli paxta xomashyosi yetishtirish va

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
		talablariga mosligini ko'rib chiqish.	2. Ro'yxatga muvofiq Jahon savdo tashkiloti talablari asosida tahlillarni o'tkazish. 3. Tahlil natijalari asosida soha yo'nalishiga taalluqli standartlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga taklif kiritish.	2025-yil iyul 2025-yil noyabr	xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida O'zbekistonda Xitoy seleksiyasiga mansub paxta navlari keng miqiyosda ekilib, qayta ishlanyotganligi sababli mazkur navlar xususiyatlarini to'g'ri baholash, tola sifatini aniqlash, xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash hamda qayta ishlash korxonalarida yagona mezonlarni joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi milliy standartlarini Xitoy Xalq Respublikasining quyidagi standartlariga muvofiqlashtirishi yuzasidan takliflar "O'zagroinspeksiya"ning 2025-yil 25-noyabrdagi 02/3-11-2736-sonli xati bilan O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga kiritildi.
67-maqсад: Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasini kengaytirish					
7.	25.	"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 200 million tup manzarali va mevali daraxtlar hamda butalar ko'chatlari va qalamchalarini ekish.	1. "Yashil makon" umummilliy dasturi doirasida hududiy bo'linmalarining tuproq-iqlim sharoitidan mos ko'chat turlarini tanlab, bahorgi va kuzgi mavsumida ekish ishlarini tashkillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilash. 2. Belgilab olingan chora-tadbirlar dasturi doirasida hududiy bo'linmalarining bino-inshoatlarining atrofidagi bo'sh yerlariga mevali va butalar	2025-yil mart 2025-yil bahorgi va kuzgi ko'chat	Bajarildi. "O'zagroinspeksiya" boshlig'ining 2025-yil 12-martdagi UM-16-25-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan nazorat rejasida "Yashil makon" umumiylik dasduri doirasida mevali manzarali daraxt va bo'ta ko'chatlarini ekish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olindi. Bugungi kunda "Yashil makon" umumiylik dasduri doirasida Inspeksiyaning markaziy hamda hududiy boshqarmalarning joylashgan binolari atrofidagi bo'sh

T/r	A/t	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Bajarilishi
			ko'chatlarini hamda qalamchalarni ekishni tashkil etish.	ekish mavsumlarida	maydonlarning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda 4 786 tup mevali 13 440 tup manzarali ko'chatlari ekilishi ta'minlandi.
81-maqсад: Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish					
8.	17.	Davlat xizmatining raxbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni maqsadli tayyorlash tizimini yaratish.	1. Iqtidorli xotin-qizlar orasida maqsadli tanlovlar e'lon qilib, xotin-qizlarning maxsus o'quv dasturi asosida boshqaruvga oid ko'nikmalarini oshirish. 2. Onlayn o'quvlar orqali xotin-qizlarning bilimlari va kasbiy ko'nikmalarini oshirish.	2025-yil davomida	Bajarildi. “O‘zagroinspeksiya” tizimidagi iqtidorli xotin-qizlarni aniqlash va ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash uchun kadrlar zaxirasini shakllantirish ishlari olib borilmoqda. Mazkur ishlar natijasida, inspeksiya tizimidagi rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlar ulushini bosqichma-bosqich oshirish ko‘zda tutilgan. 2025/2026 o‘quv yili uchun Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining “Rahbar ayollar” dasturida tahsil olish uchun 3 nafar xotin-qizlarning nomzodlari shakllantirilib, Boshqaruv samaradorligi agentligiga taqdim etildi. Bundan tashqari, xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida ular uchun tegishli onlayn o'quv kurslari orqali malaka oshirish ishlari yo'lga qo'yilgan.